

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat
Universiteti
Filologiya fakulteti o'zbek tili bo'limi*

REFERAT

**Mavzu: O'.HOSHIMOV ASARLARIDA UMUMTIL
IBORALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Topshiruvchi: Sultanova Nodira

Qabullovchi: Kazakov Ilhom

Nukus - 2013

O'.HOSHIMOV ASARLARIDA UMUMTIL IBORALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ma'lumki, o'zbek tili -ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang-barangligi Alisher Navoiy zamonidayoq isbotlangan. Iboralar bu til mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazinadir. Hozirgi yosh avlod tilimizning lug'at boyligi bilan, ma'nolar olami bilan boshlang'ich sinflardan boshlaboq yaqindan tanish bo'lishlari lozim. Bola so'z va ma'nolar dunyosiga osonlik bilan kira olsagina, unda ziyrak so'z sezgisi, toza til hissi tarbiya topadi. Ana shunday tarbiyani tashkil etishda tilimiz ko'rki bo'lgan frazeologizmlar yoki iboralarning ham alohida o'rni bor. Chunki, "ibora va tasviriy ifodalar o'quvchilar nutqini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Matnda o'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va iboralarni ajratish, ularning qo'llanilishini izohlash, iboralar va tasviriy ifodalar lug'atini tuzish, ular ishtirokida badiiy tasvir yaratish kabi amaliy ishlar tilimizning bu boy imkoniyatidan nutqda unumli foydalanish mahoratini shakllantiradi.

Haqiqatan ham, har bir millatning o'ziga xos ko'rish yo'sini, o'ziga xos eshitish maqomi va idrok intizomi bor. Bu holatlar og'zi qulog'iga yetdi, joni chiqdi, boshi qotdi, ichini yemoq, ich-etini yemoq, yeti uxlab tushiga ham ko'rmaslik, alifni kaltak deyolmaslik, tishini-tishiga qo'ymoq, ko'ngli joyiga tushmoq, og'zini moylamoq kabi iboralarda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki bunday iboralar tilimizning bebaho nodir boyligi bo'lib, unda xalqning orzu-istaklari, intilishi, hayot tarzi, urf-odatlar, madaniy darajasi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek frazeologiyasiga oid dastlabki tadqiqotlar XX asrning 50-60 yillarida qilingan bo'lib, ularda o'zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida frazeologik birlik uslubiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu kabi ishlar A.Navoiy (E.Umarov), Muqimiy (A.Shomaqsudov, A.Jo'raxonov), Hamza

(B.Turdiyev, Sh.Qozoqov), S.Ayniy (E.Qilichev), A.Qodiriy (F.Nasriddinov), A.Qahhor (I.Qo'chqortoyev, O.Abdullayeva) va boshqa adiblarning asarlarida frazeologik birliklarning qo'llanilishi tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda Sh.Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, A. Rafiyev kabi olimlarning munosib hissalari bor.

Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, P.Qodirovning "Xalq tili va realistik proza"(1973), Q.Samadovning "Oybekning til mahorati "(1981), "O'zbek tili uslubiyati"(Badiiy uslub,1991), I.Qo'chqortoyevning "Badiiy nutq stilistikasi"(1975), M.Hakimovning "Yozuvchi va xalq tili"(1971),X.Doniyorov,B. Yo'ldoshevning "Adabiy til va badiiy stil"(1988), B.Choriyevning "G'afur G'ulom she'riyati tili" (1990), S.Karimovning "O'zbek tilining badiiy uslubi" (1992), B.Umurqulovning "Badiiy adabiyotda so'z" (1993), B.O'rinboyev, R.Qo'ng'urov, J.Lapazovning "Badiiy matnning lingvistik tahlili" (1990). B.Yo'ldoshev, Z.Pardayev, F.Bobojonovning "Badiiy asar tili masalalari" (2001) nomli ishlarini ko'rsatish mumkin. Ammo, o'zbek uslubshunosligida O'.Umarbekov, Sh.Xolmirzayev, T.Malik, X.To'xtaboyev kabi bir qancha yozuvchilarimizning o'ziga xos til xususiyatlarini maxsus o'rganilgani yo'q. Shulardan biri shoir va yozuvchilarning so'z yoki ibora qo'llash mahoratini tadqiq etish, shu asosda adabiy til rivojiga qo'shayotgan o'ziga xos ulushini aniqlashdan iboratdir. Ana shunday adabiy tilimiz rivojida salmoqli iz qoldirgan, keng qamrovli, qalami o'tkir so'z san'atkorlaridan biri O'tkir Hoshimovdir.

1.1. "Dunyoning ishlari" qissasida umumtil frazeologizmlari roviy bayoni uchun vosita sifatida

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida qo'llanilgan umutil frazeologizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini o'zbek uslubshunosligi erishgan yutuqlarga

tayangan holda tadqiq qilishga intilamiz. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qissada qo'llanilgan – frazeologizmlarning ko'prog'i umumtil ko'rinishida, ya'ni tarkibi hech qanday o'zgarishga uchramagan holda ishlatilgan.

“Dunyoning ishlari”qissasida *ko'z o'ngi, o'pkasi to'lmoq, ko'z oldiga keltirmoq, joni uzilmoq, yuragi shuv etmoq, ko'rarga ko'zi yo'q, yaxshi ko'rmoq, jahli chiqmoq, xayol surmoq, esiga tushmoq, vahima qilmoq, ko'ngli ag'darilmoq, azob bermoq, ko'z-ko'z qilmoq, og'zi qulog'iga yetmoq, jonga tegmoq, yomon ko'rmoq, o'zini olib qochmoq, ishning ko'zini bilmoq, ko'ziga cho'p solmoq, aqli yetmoq, boshiga urmoq, hafsalasi pir bo'lmoq, yodiga tushmoq, qarzini uzmoq, g'ashiga tegmoq, umidini uzmoq, ko'zi tushmoq, dili og'rirmoq, yodidan chiqmoq, yengil tortmoq, xayoliga keltirmoq, ko'nglini ko'tarmoq, yuragini ochmoq, esdan og'moq, orasini buzmoq, qovog'ini solmoq, ko'zi tushmoq, yo'ldan urmoq, ko'gliga g'ulg'ula solmoq, zimmasiga tushmoq, toqati toq bo'lmoq, umid bog'lamoq, diydoriga to'ymoq, hushi joyiga kelmoq, qulog'iga quymoq, quloqqa chalinmoq, yarasini yangilamoq, churq etmaslik, ko'zi ilinmoq, ko'nglini ko'tarmoq, kapalagi uchmoq, ko'ngliga olmoq, tuyog'ini shiqillatmoq, o'yga tolmoq, ko'ngli g'ash, xijolat chekmoq, taqdirga tan bermoq, o'z(i)ni bosmoq, holdan toymoq, ko'ngli bo'sh, dil(i) og'rirmoq, dili vayron, jon(i) achimoq, qo'li egri, insof(i) kirmoq, bo'yniga olmoq, qo'lidan tutmoq, itning kunini boshiga solmoq, ko'ngli aynimoq, oyog'i tortmaslik, o'pkasi to'lmoq, yulduzi yulduziga to'g'ri kelmoq, etni tirnoqdan ajratmoq, jahlidan tushmoq, qo'rquv bosmoq, rahm(i) kelmoq, o'pkasini tutolmaslik, anqoning urug'i, tuzog'iga ilinmoq, ko'zi uchmoq, quloq solmoq, hushini to'plamoq, tirnoqqa zor, yuragini o'rta yubormoq, og'ziga kuchi yetmoq, qulog'i og'ir kabi juda ko'plab iboralar qo'llanilgan.*

Frazeologizmlarning shakllanish asosi inson tana a'zolari nomlari bilan bog'liq, ya'ni somatik frazeologizmlar ham badiiy matnda obraz, personaj,

xarakter qirralarini to'la oghishda, voqea-hodisa, holatlarni obrazli, bo'rttirib tasvirlashda qo'llaniladigan muhim til birliklari hisoblanadi.¹

Ma'lumki, yurak, o'pka insonning ichki a'zolaridan bo'lib, bu somatizm ishtirok etgan frazeologik birliklar ham insonning ichki kechinmalarini, ruhiy kayfiyati bilan bog'liq holda ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Yozuvchi O'tkir Hoshimov qissasida qahramonlar juda chuqur ruhiy holatlarida, ranjiganlarida, quvonganlarida, achchiqlanganlarida o'z kechinmalarini, his-tuyg'ularini ifodalash uchun o'pka, yurak somatizmlari bilan bog'liq frazeologizmlarga murojaat qiladi. Masalan, *ko'nglini ovlamoq, ko'nglini og'ritmoq, ko'ngliga (yuragiga)g'ulg'ula solmoq, ko'ngli ag'darilmoq, ko'ngliga olmoq, ko'nglini (yuragini) ochmoq, ko'nglini ko'tarmoq, ko'ngli sezmoq, ko'nglini g'ashlamoq, ko'nglida umid uyg'onmoq, dili vayron, o'pkasini bosolmaslik, yuragini o'rtamoq, ko'ngliga kelmoq, ko'ngli g'ash, ko'ngli bo'sh, ko'ngli to'lmoq* kabilar.

Qissada qo'llanilgan ***ko'ngli og'rimoq, dili og'rimoq*** iboralari sinonim frazeologizmlar bo'lib, ranjimoq ma'nosini bildiradi. (O'TIFL, 167-bet) Bu ibora muallif va personajlar nutqida uchraydi: onaning voyaga yetgan qiziga kelayotgan sovchilarga bo'lgan munosabatini ifodalashda ishlatilgan. *"Oyim hech qaysi sovchining dilini og'ritmas, ammo sovchilar tugib kelgan nonni sindirishga ham yo'l qo'ymas edi.* ("D.I", 42-bet)

Yana shu ma'noda hikoya qahramoni tilida ishlatilib bolaga berilayotgan tanbehning ta'sirchanligini oshirgan. Shuningdek, bu matn tarkibida bir-biriga zid ma'noli iboralar qo'llanilib uslubiy ma'noni yanada oshirishga xizmat qilgan: *"Sen, - debdi kampir yigitga, - birovning ko'nglini ovlashdan oldin o'z onangning ko'nglini og'ritmaslikni o'rgan* ("D.I", 50-bet)

¹ Shuhrat Abdullayev Filologik tadqiqotlar Nukus, 2010

Shunisi muhimki, “ D.I ” da sinonim frazeologizmlardan unumli foydalangan. Ichidagi istak yoki dardini ochmoq ma’nolarini ifodalovchi *yuragini ochmoq ko’nglini og’ritmaslikni* o’rgan.” (“D.I”,13-bet) Bu frazeologizmning *yuragini yozmoq, ko’nglini ochmoq, ko’ngil ochmoq, qalbini ochmoq* kabi variantlari mavjud. (O’TIFL, 271-bet). Yozuvchi *yuragini ochmoq* iborasidan shifokorning oldida o’tirgan qahramonning ruhiy holatini ifodalashda samarali foydalangan. ”Rostki, sizga yuragimni ochdimmi, bu yog’iniyam aytishim kerak,. Mening buvam –dadamning otasi SHZ bo’lgan. (“D.I”,50-bet)

Frazeologik variantlar tilda mavjud bo’lgan frazeologizmlardan o’sib chiqqan bo’ladi. Ular asosan, bir obraz bilan farqlanadi. Frazeologik variantlar ma’no, stilistik va sintaktik vazifalariga ko’ra bir-biriga yaqin. Ularning leksik tarkibida qisman farq bo’lishi mumkin., lekin asosida bir obraz yotadi. Shu asosda aytish mumkinki, O’tkir Hoshimov umumtil frazeologizmlarning variantlaridan mohirona foydalanib, oddiy xabarlarni ham obrazli qilib tasvirlashga muvaffaq bo’lgan. Masalan, o’zbek adabiy tilida *ko’nglini ko’tarmoq* frazeologizmi xursand qilmoq, ruhlantirmoq ma’nolarini bildiradi (O’TIFL, 165-bet) Uning *ko’nglini tog’day ko’tarmoq, ko’ngli tog’day ko’tarildi, ko’kragi tog’day ko’tarildi* kabi variantlari ham bor. Yozuvchi o’z qissasida *ko’nglini ko’tarmoq* variantidan (roviy nutqida qo’llab) Doimo insonlardan norozi kayfiyatda yuruvchi va shifoxonaga tushib qolib, qo’shnilaridan ro’shnolik ko’rib ularning qadriga yetgan qo’shni kampirga bo’lgan munosabatni ifodalashda foydalangan: ”Voy-bo’, yasharib ketibsiz-ku, - dedim ko’nglini ko’tarish uchun. (“D.I”74-bet). Yana allanimalar deb ko’nglini ko’targan bo’ldim.(“D.I”50-bet)

Keng iste’moldagi *ko’ngli sezmoq* iborasi bilmoq, ichdan his etmoq ma’nosini bildiradi. Qissada doimo yaxshi narsalarni o’ylab, insonlarning ko’nglini ko’tarib yuruvchi onaning his-tuyg’ularini ifodalashga xizmat

qilgan. *Eshikdan kim kirib kelmasin, uning ko'ngli doim yaxshilikni sezib turgan bo'ladi.* ("D.I", 72-bet)

Yozuvchi "Dunyoning ishlari" qissasida umumtilda keng qo'llaniluvchi frazeologizmlardan foydalanish bilan asar tilining xalqchilligini, soddaligini oshirishni ko'zda tutgan. Masalan, umumtilda keng qo'llaniluvchi ***o'pkasi to'lmoq*** iborasi bo'lib, ***iztirob chekib, yig'lab yuborish holatiga yetmoq*** ma'nosini ifodalaydi. (Sh. Rahmatullayev, "O'TIFL,) Qissada muallif nutqi tarkibida bu ibora qo'llanilgan: *...O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman.* ("Dunyoning ishlari") Bu ibora bolaning psixologik holatini tasvirlash uchun vosita vazifasini bajarmoqda. Aynan shu ma'noni yana bir o'rinda kuzatish mumkin. "Bola endi yig'lamas, ammo ***o'pkasi to'lib***, to'xtovsiz hiqillar edi." ("D.i")

O'.Hoshimov o'z qissasida qo'rqish, hadiksirash, ma'nolarini ***yuragi ortiga tortib ketmoq, ko'ngliga g'ulg'ula tushmoq*** iboralari yordamida ifodalagan: "Bu yurtning ichiqora odamlariyam o'z podshosini ko'ngliga g'ulg'ula soldi" ("D.I" 58-bet).

Kishilarning ruhiy hissiyotini ifodalovchi ***ko'ngli to'ldi*** iborasi (O'TIFL, bet) adabiy tilda keng tarqalgan. "D.I" qissasida bozorda echkisini arzon garovga sotib, pulini qayerga yashirishni bilmay xunob bo'lgan onaning ruhiy holatini ifodalashda aynan ana shu iboradan o'rinli foydalangan. *Ona pulini cho'ntagiga solib yashiradi "..ammo ko'ngli to'lmadi shekilli, o'sha zahoti cho'ntakdan qaytarib olib, ko'ylagining yoqasi tagiga yashirdi.* ("D.I", 107-bet)

Asarda ***ko'nglini olmoq*** iborasi qo'llangan bo'lib, xursand qilish bilan o'ziga xayrixoh qilmoq ma'nosini ifodalaydi. ("O'TIFL, 165-bet) Bu umumtil iborasi yozuvchi O'.Hoshimovning qissasida ham uchraydi. "Haqqush" hikoyasidagi onaning ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qilgan.

“Ularning ko’nglini olaman deb, ikki o’rtada onalari adoyi tamom bo’ldi.”(“D.I”, 9-bet)

O’zbek tilida umumtilda keng qo’llaniluvchi **ko’ngli ag’darilmoq** iborasi tabiga yoqmaslik natijasida behuzur bo’lmoq ma’nosini bildiradi. Qissada Hoji buvining harakatlaridan o’sal bo’lgan bolaning xatti-harakatini o’zgargan tasvirlash uchun aynan shu iboradan o’rinli foydalanilgan.

O’zbek adabiy tilida **o’pkasini tutolmaslik** iborasi o’zini yig’lashdan tiyib qololmaslik tarzida izohlangan(O’TIFL, 285 bet) Sinonimi o’pkasini bosolmaslik frazeologizmi bo’lib, asarda aynan shu variantidan onaning ruhiy holatini tasvirlashda foydalanilgan. “*Uning tepasida o’zi ham o’pkasini arang bosib turgan yoshgina juvonga endi e’tibor berdim.*” (“D.I” ,22-bet)

Adabiy tilimizdagi **ko’ngliga tugmoq** ko’p ma’noli iborasi bo’lib, uning quyidagi ma’nolari qayd etilgan:

1. O’rni kelganda aytishni mo’ljallab qo’ymoq ma’nosini ifodalaydi. Variantlari: ko’nglida tugib yurmoq, yuragiga tugmoq, yuragida tugib yurmoq, dilga tugmoq kabi.

2. Ahd qilmoq. Varianti: ko’ngilga tugmoq, diliga tugmoq

3. Fikran belgilab olmoq

4. Unutmay ichda saqlamoq kabi ma’nolari mavjud. (O’TIFL”,158-bet)

Bu o’rinda Naim satarosh nutqidagi ko’ngliga tugmoq iborasi o’zining ikkinchi ma’nosida qo’llanilganligi ayon bo’ladi.

Umumtil frazeologizmlarning lingvopoetik xususiyatlari o’rganilar ekan, ular ham xuddi so’zlar kabi uslubiy bo’yoqdorlikka ega ekanligini inobatga olish lozim bo’ladi. Negaki, so’zning uslubiy xarakteristikasi (tavsifi) kabi iboralarda ham funksional-uslubiy bo’yoqdorlik, emotsionallik-ekspressivlik va baho munosabatlari bilan omuxta holda mavjud bo’ladi. Shunga binoan, umumtil frazeologizmlari predmetlik ma’nosidan tashqari emotsional-ekspressiv, baho-munosabat kabi ma’no elementlarini

vobastaligi, omuxtaligi faqatgina predmetga xos bo'lgan mantiqiy ma'noni ifodalab qolmasdan, shu bilan birga obrazli tasavvur va predmetning mantiqiy ma'nosiga emotsional ma'noni ham ifodalash bilan xarakterlanadi.

Masalan, **ko'ngli g'ash** umutil iborasi tashvishli, notinch, bezovta ma'nolarini ifodalaydi. Uning **yuragi g'ash, dili vayron, ko'ngli xira, ichi g'ash** kabi variantlari bor. Bu ibora "Dunyoning ishlari" qissasida ikki marta qo'llangan.

Asarda **dili vayron** variantidan roviy nutqida foydalanib uning ruhiy holatini ifodalashga vosita bo'lgan. "*Mening qiziq bir odatim bor: birovni ranjitib qo'ysam, (adolatli xafa qilgan bo'lsam ham) o'sha odamdan ko'proq o'zimning **dilim vayron** bo'lib yuradi.*" ("D.I", 115-bet)

Yoki adabiy tilda **ko'ngli aynidi** ko'p ma'noli, umumtil iborasi faol qo'llanib, uning :

1. Organizmi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'lmoq. Varianti: ko'nglini aynitmoq; Sinonimi: ko'ngli ozdi ("ovqat"dan)

2. Tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg'anmoq ma'nolarini bildiradi. Yozuvchi bu iboraning keyingi, ikkinchi variantidan o'rinli foydalangan. Ya'ni kerosin hididan behuzur bo'lgan bolaning holatini ifodalashda vosita bo'lib xizmat qilgan. "*Ko'nglim aynib ketdi.*" ("D.I", 136-bet)

Qissada **og'zim qulog'(i)ga yetmoq** iborasi qo'llangan bo'lib, juda xursand ma'nosini bildiradi. Bola(hikoyachi-muallif)ning yong'oq o'yinida g'olib bo'lganligidan xursandligini ifodalashda aynan shu iboradan foydalangan. "*Kechqurun og'zim qulog'imga yetgudek bo'lib bir do'ppi yong'oq ko'tarib keldim.*" ("D.I", 18-bet)

Aqli yetmoq ibora sifatida ifodalanishi bilan xarakterlanadi :

1. **Aqli yetmoq** frazeologizmi ikki komponentli, so'zga teng ibora bo'lib, ko'p ma'noli idrok qilmoq, uqmoq, bilmoq. Varianti: fahmi yetmoq

2. Ishonch hosil qilmoq (O'TIFL, 29-bet)

“Dunyoning ishlari”qissasida bolaning onasi bilan devonaning uzoq suhbatini sababini anglay olmasligini yuqridagi ibora yordamida aniq ifodalab bergan. *“Onam, bilan uzoq-uzoq gaplashganini ko’rdimu, onam bu devona bilan nimani gaplashishiga **aqlim yetmasdi.**”* (“D.I”, 30-bet)

1.2. . “Dunyoning ishlari” qissasida umumtil frazeologizmlarining personajlar tavsifi va ularning nutqini individuallashtirish vositasi sifatida

Nutqimizda keng tarqalgan soʻzlashuv, badiiy nutq uslublarida keng qoʻllaniluvchi, oʻrni bilan publisistik uslubda ham qoʻllanadigan xalq iboralari nutq uslubini yaratishning eng muhim vositalaridan biridir. Frazeologik birikmaslarning maʼnosi asosida yuzaga keladi va inson xotirasida bir butun holda saqlanadi, nutq jarayonida ham xuddi shunday yaxlit talaffuz qilinadi. Tilimizda asrlar davomida keng qoʻllanilib kelinayotgan frazeologik birliklar talaygina, ular toʻplanib kitob holida nashr qilingʻan. “Keng uyning kelinchagi” kitobida mingdan ortiq xalq iboralariga izoh berilib, ularning mazmuni tushuntirib berilgan. Iboralar oʻzbek xalqining tafakkurini, nutqiy salohiyatini koʻrsatadi, ular orqali xalqning turmush tarsi aks ettiriladi. Masalan, *ogʻzi qulogʻida, boshi osmonda, koʻzini shira bosmoq, koʻz qirini tashlamoq, koʻzi tushmoq*, singari iboralar soʻzlovchi nutqining taʼsirchan boʻlishiga yordam beribgina qolmay, oʻziga xos nutq uslubini yaratishga, soʻzlovchi nutqining individualligini koʻrsatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. ILMIY –NAZARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O'zbekiston islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida, Toshkent, 1995,
2. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, Toshkent, O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, Toshkent, O'zbekiston, 1997,
4. AbdullayevaL. Leksicheskaya stilistika uzbekskoy xudojestvennoy literature, Toshkent, Fan, 1979.
5. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi, Toshkent, Fan, 1983
6. Aliyev A. Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish, Toshkent, O'qituvchi, 1977.
7. Berdiyev H, Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasidan bibliografik ko'rsatkich , Samarqand, 1977.
8. Gorkiy A.M. Adabiyot haqida, Toshkent,O'zdavnashr, 1962.
9. Doniyorov H, Mirzayev S. So'z san'ati, Toshkent,O'zdavnashr, 1962.
10. Doniyorov H, Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil, Toshkent, Fan, 1988.
11. Yo'ldoshev B, Badiiy nutq stilistikasi, Samarqand, 1982.
12. Yo'ldoshev B,Frazeologik uslubiyat asoslari. Samarqand, 1999
13. Yo'ldoshev B, Frazeologiya tarixidan lavhalar. Samarqand, So'g'diyon nashriyoti, 1998.